Аннотация. В данной статье представлен сравнительный анализ долгосрочной устойчивости государственного долга, эффективности фискального регулирования, а также институциональных и макроэкономических аспектов стратегий управления долгом в Италии и Японии. Исследование основано на теоретических подходах, таких как фискальная теория уровня цен, теория устойчивости долга, рикардианские и не-рикардианские фискальные режимы, функция реакции первичного излишка. Подробно анализируются исторические данные с 1861 по 2020 годы, современная статистика государственного долга за 2021–2024 годы, а также ведущие академические исследования по фискальной системе управления Италией и Японией. Результаты показывают относительно сильную фискальную дисциплину в Италии, положительный фискальный ответ и значительное снижение долга после пандемии. В Японии, напротив, выяснилось, что режим фискального доминирования сформировался из-за медленного фискального ответа, демографических перспектив, низкой налоговой базы и крупных покупок облигаций центральным банком Японии. Сравнительный анализ показывает, что стабильность долга в двух странах формируется разными механизмами: в Италии — через институциональные правила, в Японии — через вмешательство центральных банков. В заключительной части статьи автор даёт практические рекомендации по улучшению фискальной политики, обеспечению долгосрочной стабильности долга и укреплению фискально-денежного баланса.

Ключевые слова: государственный долг, фискальная стабильность, рикардианский фискальный режим, нерикардианский режим, фискальное доминирование, монетарное доминирование, фискальная теория уровня цен, функция реакции первичного излишка, фискальные правила, управление долгом, фискальная политика ЕС, центральный банк Японии, динамика долгового долга, демографическое давление, фискальная консолидация.

KIRISH

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida davlat qarzining keskin o'sishi global makroiqtisodiy xavflarni kuchaytirdi, fiskal barqarorlik masalasini esa ko'plab davlatlar uchun ustuvor vazifaga aylangan. Ushbu jarayon ayniqsa Italiya va Yaponiya misolida yaqqol namoyon bo'ladi: Italiya ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlardan boshlab bir necha bor davlat moliyasining izdan chiqishi xavfi bilan yuzlashgan, 1970–1990-yillar oralig'ida esa iqtisodiy beqarorlik tufayli “debt bubble” holatiga kirib qolgan. Yaponiya esa 1990-yillarda yuz bergan “yo'qolgan o'n yillik”dan so'ng uzoq muddatli iqtisodiy stagnatsiya va deflyatsiya jarayoniga tushib qoldi; buning ustiga demografik qarash jarayonining jadallashuvi budjet bosimini keskin oshirib, davlat qarzining YAIMga nisbatan 250 foizdan yuqori darajaga ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

2021–2024-yillarda Italiya va Yaponiyaning davlat qarzi bo'yicha yangi statistik ma'lumotlarning mavjudligi mazkur mavzuni yanada dolzarb qiladi, chunki pandemiyadan keyingi davr fiskal siyosatning samaradorligini qayta baholash, davlat qarzi dinamikasini tartibga solish va makroiqtisodiy barqarorlikni tiklash jarayonini chuqur o'rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, Italiyada¹ ushbu yillarda qarzning sezilarli qisqarishi 2021-yili 174,7% dan 2024-yili 134,8% gacha va Yaponiyada² qarzning yuqori, ammo nisbiy barqaror darajada qolayotgani 2021-yili 260% dan 2024-yili 237% gacha pasayishi bu ijobiy ko'rsatgichlar ikki davlatning fiskal siyosati, institutsional qoidalari va qarz boshqaruvi strategiyalaridagi farqlarni o'rganish zarurligini ko'rsatamoqda. Mavzuning dolzarbligi nafaqat Yevropa yoki Osiyo iqtisodiyotlariga, balki O'zbekiston uchun ham bevosita ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiy islohotlar jarayonida davlat qarzi hajmi oshib bormoqda, fiskal shaffoflik, budjet intizomi, fiskal qoidalar joriy etilishi va qarz boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib turibdi. Italiya va Yaponiyaning uzoq yillik tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat qarzining barqarorligi faqat byudjet daromadlari yoki iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan emas, balki institutsional tizimning mustahkamligi, fiskal reaksiyaning moslashuvchanligi, demografik omillarni inobatga olgan holda strategik qarorlar qabul qilish va davlatning makroiqtisodiy boshqaruvdagi izchil siyosati bilan belgilanadi³. Shu bois mazkur qiyosiy tahlil O'zbekiston⁴ uchun ham dolzarb bo'lib, mamlakatning 2030-yilgacha mo'ljallangan fiskal strategiyasini takomillashtirishda, davlat qarzini xavfsiz chegaralarda ushlab turish va uzoq muddatli fiskal barqarorlikni ta'minlashda Italiya va Yaponiya tajribalaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat qarzining barqarorligi, fiskal qoidalar samaradorligi va qarz boshqaruvi strategiyalarini tushunishda xalqaro ilmiy adabiyotlar muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Italiya va Yaponiyaning fiskal tarixiy tajribasi, qarz dinamikasi, fiskal reaksiyaning institutsional omillari, qarzning iqtisodiyotga makro ta'siri va qarz

1 <https://tradingeconomics.com/italy/government-debt-to-gdp>

2 <https://tradingeconomics.com/japan/government-debt-to-gdp>

3 <https://www.imf.org/en/publications/fm>

4 <https://www.imf.org/en/countries/uzb>



rejimlarining o'ziga xos jihatlari turli metodlarda tahlil qilishgan. Bu manbalar ikki davlatning fiskal barqarorligi masalasiga doir turlicha yondashuvlarni qamrab oladi va qiyosiy tahlil uchun mustahkam konseptual asos yaratadi.

Davlat qarzining muddat tuzilmasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, xususan "The General Equilibrium Effects of Fiscal Policy with Government Debt Maturity"⁵ ishlari, qarzning qisqa yoki uzoq muddatli bo'lishi fiskal siyosatning umumiy makroiqtisodiy ta'siriga sezilarli darajada ta'sir qilishini ko'rsatadi. Qarzning muddat tuzilishi foiz stavkalari xavfi, qayta moliyalash xavfi va fiskal barqarorlikning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu xulosalar Italiya va Yaponiya misolida ayniqsa dolzarbdir: Italiya ko'proq o'rta muddatli obligatsiyalarga tayanishi bilan ajralib tursa, Yaponiyada juda uzoq muddatli qarz chiqarish amaliyoti muhim hisoblanadi, bu Yaponiyada markaziy banki tomonidan davlat obligatsiyalarining katta qismini sotib olish orqali qo'llab-quvvatlanadi. Bu holat ikki davlat fiskal risklarini boshqarish strategiyalaridagi farqlarni ko'rsatadi.

Yaponiyaning davlat qarzi siyosati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, jumladan "Sustainability, Debt Management, and Public Debt Policy in Japan"⁶ maqolasi, mamlakatda fiskal reaksiyaning juda past darajada ekanini va fiskal siyosatning monetar siyosatga kuchli tayanishini aniqlaydi. Qarz-GDP nisbati global miqyosda eng yuqori bo'lishiga qaramay, obligatsiya bozorida keskin beqarorlik yuz bermayotgani Yaponiyada markaziy bankning davlat qimmatli qog'ozlarining yarmidan ortig'ini o'z balansida ushlab turishi bilan izohlanadi. Bu esa Yaponiyada fiskal dominance hukmronligini tasdiqlaydi. Bunga qarama-qarshi ravishda "The Political Economy of Fiscal Consolidation"⁷ tadqiqoti siyosiy tsikllar, partiyalar raqobati va saylovchilarning soliq yukiga bo'lgan munosabati fiskal konsolidatsiya jarayoniga kuchli ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Aynan mana shu omillar Yaponiyada iste'mol solig'ining oshirilishiga qarshilik va fiskal konsolidatsiyaning muntazam ortga surilishi bilan namoyon bo'lgan.

Italiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar davlat qarzining uzoq muddatli barqarorligi borasida murakkab tarixiylikni ko'rsatadi. "Deficit sustainability and fiscal theory of the price level: the case of Italy, 1861–2020"⁸ maqolasida Italiya fiskal siyosatining uzoq muddatli Ricardian xususiyatga ega ekanini aniqlanadi, ya'ni qarz oshganida primary surplusning oshishi kuzatiladi. Biroq ayrim davrlarda fiskal dominance hodisalari kuzatilgani, FTPL doirasida narx darajasi fiskal siyosat orqali shakllanganligini ko'rsatadi. Bu natijalar "A Wavelet Analysis of Italian Fiscal Sustainability"⁹ tadqiqoti orqali yanada chuqurlashtiriladi: wavelet tahlil qisqa muddatli davrlarda fiskal reaksiyaning beqaror, uzoq muddatda esa ijobiy va barqaror ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, pandemiya davrini o'rgangan "COVID-19 Crisis and the Public Debt Issue: The Case of Italy"¹⁰ maqolasi Italiyada COVID-19 davrida fiskal kengaytirishning zarur bo'lganini, biroq qarz barqarorligi uchun yangi xavflar yuzaga kelganini ta'kidlaydi. Ammo pandemiyadan keyingi davrda 2021/2024-yillar Italiya qarzining sezilarli pasayishi ushbu xavflarning muvozanatlashganini anglatadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar orasida Yaponiyada fiskal boshqaruvning institutsional muammolari ham chuqur o'rganilgan. "Why Japan's Fiscal Consolidation Fails?" maqolasi davlat boshqaruvi strukturasi, fiskal intizomning pastligi, demografik qarish, ijtimoiy xarajatlarning ko'pligi va siyosiy qarorlar qabul qilishdagi sekinlik fiskal barqarorlikka jiddiy to'siq bo'layotganini ko'rsatadi. Bu manbani "Japanese Government Debt and Sustainability of Fiscal Policy"¹¹ tadqiqoti ham to'ldirib, mamlakatda primary surplus reaksiyasining nolga yaqin yoki manfiy ekanini ilmiy asoslashgan. Italiya va Yaponiyaning bevosita misollaridan tashqari, Gretsiya iqtisodiyoti bo'yicha "Under the Veil of Uncertainty" tadqiqoti yuqori qarz darajasi bilan noaniqlikning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, yuqori qarzning iqtisodiy beqarorlik xavfini kuchaytirishi universal hodisa ekanini ko'rsatadi. "Effectiveness of Fiscal Policy Measures in Different Public Debt Regimes"¹² tadqiqoti esa yuqori qarz rejimlarida fiskal siyosat samaradorligi pasayishini, multiplikatorlar kuchsizlashishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Bu ayniqsa Yaponiyaning 250%+ qarzдорlik darajasida yaqqol namoyon bo'ladi. Italiya va Yaponiyaning fiskal barqarorlik masalalarini turli metodlar va nazariyalar orqali yondashgan holda kompleks ravishda yoritadi. Italiyada fiskal intizomning tarixiy jihatdan o'zgaruvchan bo'lishiga qaramay, uzoq muddatli Ricardian reaksiya va Yevropa Ittifoqining qat'iy fiskal qoidalari barqarorlikni mustahkamlasa, Yaponiyada fiskal dominance, demografik qarish va institutsional cheklovlar davlat qarzining pasayishiga imkon bermayapti.

5 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0164070416301045>

6 <https://www.nber.org/papers/w12357>

7 https://www.oecd.org/en/publications/the-political-economy-of-fiscal-consolidation_5kmddq798lls-en.html

8 <https://link.springer.com/article/10.1007/s10663-023-09577-w>

9 <https://link.springer.com/article/10.1186/s40008-019-0151-5>

10 <https://mpira.ub.uni-muenchen.de/103997/>

11 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0889158311000554>

12 https://www.researchgate.net/publication/383556095_Effectiveness_of_fiscal_policy_measures_in_different_public_debt_regimes



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Italiya va Yaponiyada davlat qarzining uzoq muddatli barqarorligini baholash uchun kompleks nazariy-empirik yondashuvga asoslangan. Avvalo, tahlilning nazariy poydevorini tashkil etuvchi bir qator fundamental konsepsiyalar tanlab olindi. Jumladan, Fiscal Theory of the Price Level (FTPL) narx darajasining shakllanishida fiskal siyosatning roli va davlat qarzining qiymatini belgilovchi fiskal omillarni tahlil qilishda qo'llanildi. Debt sustainability theory esa davlat qarzining YAIMga nisbatan barqaror yoki portlovchi trayektoriyada harakatlanishini baholash imkonini berdi. Shuningdek, davlatning fiskal xulq-atvorini aniqlovchi Ricardian va Non-Ricardian fiskal rejimlari farqlari, fiskal intizomning kuchliligi yoki zaifligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Fiskal reaksiyaning miqdoriy mezonlarini aniqlash maqsadida Primary Surplus Reaction Function (PSRF) tushunchasiga tayanildi, bu orqali qarz o'zgarishlariga hukumatning fiskal javobi baholandi. Davlat qarzi bozorida monetar siyosatning roli va fiskal-monetar munosabatlarning ustuvorligi esa fiscal dominance vs monetary dominance nazariyalari asosida tahlil qilindi.

Metodologiyaning ikkinchi bosqichi ilmiy manbalarni tizimli ravishda o'rganishdan iborat bo'lib, Italiya va Yaponiyaning fiskal barqarorligiga oid uchta asosiy ilmiy maqola chuqur tahlil qilindi. Mazkur manbalar orqali tarixiy fiskal reaksiyaning intensivligi, davlat qarzining "portlovchi" xatti-harakatlari (debt bubble) kuzatilgan davrlar, fiskal qoidalar kuchi va ularning davlat moliyasiga ta'siri, shuningdek markaziy bankning qarz bozoridagi roli o'rganildi. Italiya uchun FTPL doirasidagi narx darajasi shakllanishi, fiskal dominance bosqichlari va Yevropa Ittifoqi fiskal intizomining ta'siri tahlil etilgan bo'lsa, Yaponiyada demografik bosim, fiskal reaksiyaning zaifligi va Yaponiyada markaziy bankning obligatsiya bozoridagi dominant ishtiroki kabi omillar o'rganildi.

Metodologiyaning uchinchi bosqichi empirik qiyoslashdan iborat bo'lib, 2021–2024-yillar oralig'idagi Italiya va Yaponiyaning davlat qarzi ko'rsatkichlari solishtirildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Italiyada davlat qarzi 2021 yildagi 174,7 foizdan 2023 yilda 134,8 foizga keskin pasaygan bo'lsa, 2024 yilda 135,3 foiz atrofida barqarorlashgan. Yaponiyada esa qarz darajasi 2021 yildagi 255,1 foizdan 2022 yilda 260 foizga oshgan, keyingi yillarda esa asta-sekin pasayib, 2024 yilda 237 foizga tushgan. Ushbu qiyosiy ma'lumotlar ikki davlatning fiskal barqarorlik tendensiyalaridagi tub farqlarni ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yaponiya va Italiya fiskal barqarorligi bo'yicha o'tkazilgan empirik tahlillar ushbu ikki davlatning fiskal siyosati, davlat qarzi dinamikasi va institutsional boshqaruv tizimlarida keskin farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Yaponiya fiskal reaksiyasining sustligi va institutlarning zaifligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Yaponiyada qarz oshganida primary balance deyarli o'zgarmaydi yoki juda sekin o'sadi, bu esa fiskal siyosatning qarzga nisbatan sezgir emasligini anglatadi. PSRF modeli bo'yicha bunday xatti-harakat Non-Ricardian rejimga xos bo'lib, fiskal dominance sharoitini yaratadi. Natijada, fiskal siyosat qarzni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va qarz-GDP ko'rsatkichi yuqori darajada saqlanib qoladi. Empirik ma'lumotlar ham buni tasdiqlaydi: 2021–2022-yillarda Yaponiyada davlat qarzi 255,1 foizdan 260 foizga oshgan, 2023–2024-yillarda esa biroz pasayib 237 foizni tashkil etgan. Shunga qaramay, bu daraja hali ham dunyodagi eng yuqori davlat qarzi bo'lib qolmoqda. Yaponiyaning fiskal konsolidatsiyasining muvaffaqiyatsiz bo'lishi bir necha omillar bilan izohlanadi: soliq oshirishga saylovchilar qarshiligi, demografik qarishning kuchayishi, ijtimoiy ta'minot xarajatlarining yuqoriligi, iste'mol solig'ining juda pastligi hamda parlament va hukumat o'rtasidagi fiskal koordinatsiyaning sustligi demakdur.

1-jadval. Italiya va Yaponiyada fiskal reaksiyaning qiyosiy modeli¹³

Davlat	Rejim	Tavsif
Italiya	Ricardian	Qarz oshganda primary surplus ko'payadi
Yaponiya	Non-Ricardian	Qarz oshganda fiskal moslashuv yuz bermaydi

Fiskal qoidalarining kuchi bo'yicha ham ikki davlat keskin farqlanadi. Italiya Yevropa Ittifoqining Maastricht talablari va Stability and Growth Pact doirasidagi fiskal intizomga amal qiladi, bu budjetni cheklovchi tashqi mexanizm sifatida ishlaydi. Yaponiyada esa fiskal qoidalar ko'pincha tavsiyaviy xarakterga ega, hatto ularning ijrosi siyosiy sikllarga bog'liq. Bu farq quyidagi jadvalda ko'rsatiladi.

¹³ Muallif tomonidan mustaqil tuzildi




Italiyada esa fiskal reaksiyaning xususiyati Yaponiya bilan keskin farqlanadi. Italiya PSRF modeli bo'yicha Ricardian fiskal rejimga mansub bo'lib, qarz oshganida primary surplus oshishi kuzatiladi. Bu fiskal siyosatning qarz dinamikasiga mos ravishda harakat qilishini anglatadi. Buni zamonaviy ma'lumotlar ham tasdiqlaydi: Italiyada davlat qarzi pandemiyadan so'ng 2021-yildagi 174,7 foizdan 2023-yilda 134,8 foizgacha keskin kamaygan. 2024-yilda ko'rsatkich 135,3 foiz atrofida barqarorlashgan bo'lib, fiskal intizomning tiklanganini bildiradi. Bunday barqarorlikka erishishda Yevropa Ittifoqi tomonidan belgilangan qat'iy fiskal qoidalar, byudjet intizomi, soliq tizimining barqarorligi va fiskal shaffoflikning oshirilishi muhim rol o'ynaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Italiya fiskal siyosati qarzning pasayishiga faol javob beradigan Ricardian modelga asoslangan, Yaponiya esa fiskal moslashuv mexanizmi sust bo'lgan Non-Ricardian rejimda qolmoqda.

2-jadval. Italiya va Yaponiyada fiskal qoidalar ta'siri¹⁴

Yo'nalish	Italiya	Yaponiya
Qoidalar kuchi	EU tomonidan majburiy	Zaif, tavsiyaviy
Byudjet intizomi	Nisbatan kuchli	Zaif
Soliq tizimi	Barqaror	Iste'mol solig'i past

Zamonaviy qarz dinamikasi ham ikki davlatning fiskal boshqaruv sifatidagi farqlarni yanada yaqqol ko'rsatadi.



1-rasm. 2021–2024-yillarda Italiya va Yaponiyada davlat qarzi (YAIMga nisbatan, %)¹⁵

2021–2024-yillar davomida Italiya va Yaponiyaning davlat qarzi dinamikasi ularning fiskal siyosati va iqtisodiy boshqaruvdagi asosiy farqlarni aniq aks ettiradi. Italiyada davlat qarzi 2021-yildagi 174,7 foizdan 2023-yilda 134,8 foizgacha keskin kamayib, 2024-yilda 135,3 foizda barqarorlashdi. Bu tendensiya pandemiyadan keyingi davrda fiskal konsolidatsiyaning jonlanishi, byudjet intizomining kuchayishi va Yevropa Ittifoqi fiskal qoidalarining majburiyligidan dalolat beradi. Yaponiyada esa qarz-GDP nisbati 2021-yildagi 255,1 foizdan 2022-yilda 260 foizga asta ko'tarilib, keyinchalik 2024-yilda 237 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, hali ham dunyodagi eng yuqori darajani saqlab qolmoqda. Bu mamlakatda fiskal reaksiyaning zaifligi, ijtimoiy xarajatlarning yuqoriligi va demografik bosim kuchliligini ko'rsatadi. Markaziy banklar siyosati ham qarz barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi: Yevropa Markaziy Banki (ECB) Italiya obligatsiyalarini cheklangan miqdorda xarid qilgani sababli bu mamlakatda bozor intizomi nisbatan kuchli saqlanadi, Yaponiya Markaziy Banki (Yaponiyada markaziy bank) esa davlat obligatsiyalarining 50 foizdan ortig'ini sotib olgani tufayli Yaponiya qarz bozorida intizomning pasayishi va fiskal siyosatning bozor bosimidan himoyalinishi yuzaga keladi. Shu bois, Italiyada qarzning sezilarli qisqarishi fiskal intizom samaradorligini ko'rsatsa, Yaponiyada qarzning yuqori darajada saqlanishi fiskal dominance rejimi davom etayotganini tasdiqlaydi.

¹⁴ Muallif tomonidan mustaqil tuzilgan.

¹⁵ <https://tradingeconomics.com/italy/government-debt-to-gdp> va <https://tradingeconomics.com/japan/government-debt-to-gdp> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tuzildi

3-jadval. Markaziy banklar rolining qiyosiy tahlili¹⁶

Metrika	Italiya (ECB)	Yaponiya (Yaponiyada markaziy bank)
Qarz xaridi	Cheklangan	Juda katta
Bozor intizomi	Yuqori	Zaif
Inflyatsiya	O'rtacha	Deflyatsiyaga moyil

3-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, Italiya fiskal barqarorlikka qaytishning institutsional modelini namoyish etayotgan bo'lsa, Yaponiya fiskal siyosatning sustligi, siyosiy omillar va demografik bosimlar tufayli barqarorlikka erisha olmayapti. Italiyada qarzning keskin pasayishi fiskal konsolidatsiya strategiyasining muvaffaqiyatini ko'rsatsa, Yaponiya fiskal siyosati deflyatsiya, qarish jarayoni va markaziy bankning ortiqcha intervensiyasi tufayli murakkab holatga tushib qolgan. FTPL nazariyasi doirasida Italiya tarixiy davrlarda narx darajasining fiskal siyosat orqali shakllanganini ko'rsatgan bo'lsa, Yaponiyada uzoq yillar davomida past inflyatsiya va hatto deflyatsiya kuzatilgani fiskal dominance rejimining ustuvorligini tasdiqlaydi. Uzoq muddatli xavflarga to'xtaladigan bo'lsak, Italiyada foiz stavkalari oshishi qarzning qayta moliyalanishini qimmatlashtirishi mumkin, Yaponiyada esa Yaponiyada markaziy bank balansining haddan ziyod kengayishi kelajakda inflyatsion shok xavfini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Italiya va Yaponiyada davlat qarzining uzoq muddatli barqarorligini baholash orqali fiskal qoidalar, institutsional omillar va qarz boshqaruvi strategiyalari ikki davlatda tubdan farqlanishini ko'rsatdi. Natijalar shuni tasdiqladiki, Italiya asosan Ricardian fiskal rejimda faoliyat yuritadi, ya'ni qarz oshganda primary surplus orqali fiskal moslashuv yuz beradi. Yevropa Ittifoqining qat'iy fiskal qoidalari Italiyada byudjet intizomini mustahkamlagan va 2021–2024-yillar oralig'ida davlat qarzining keskin pasayishiga imkon yaratgan. Shunga qaramay, qarz darajasi hali ham yuqori bo'lib, foiz stavkalari oshishi Italiya uchun potensial xavf bo'lib qolmoqda.

Yaponiyada esa fiskal reaksiya juda sust bo'lib, bu mamlakatning fiskal siyosatida Non-Ricardian xususiyat ustunligini ko'rsatadi. Bu holat fiskal dominance rejimi shakllanganini bildiradi — qarzning o'sishi fiskal siyosatni qayta shakllantirishga majbur qilmaydi. Yaponiyada qarzning yuqori darajada saqlanishiga qaramay, inqiroz yuz bermayotganining asosiy sababi Yaponiya Markaziy Bankining davlat obligatsiyalarini massiv ravishda sotib olishi natijasida bozor intizomining zaiflashganidir. Shuningdek, demografik qarish jarayoni, ijtimoiy ta'minot xarajatlarining ortishi va siyosiy jarayonlarning sekinligi mamlakatning uzoq muddatli fiskal barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Italiya fiskal barqarorlikni institutsional mexanizmlar, tashqi nazorat va fiskal qoidalar orqali ta'minlayotgan bo'lsa, Yaponiyada ichki moliya bozorining kuchliligi va markaziy bank intervensiyasi barqarorlikni sun'iy tarzda qo'llab-quvvatlamogda. Shu sababli, ikki davlatning qarz barqarorligi turlicha yo'nalishda shakllanadi: Italiya institutsional barqarorlik orqali qarz xavfini kamaytirsa, Yaponiya bozor mexanizmlarini markaziy bank siyosati bilan muvozanatlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslangan tavsiyalar

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, har ikkala davlat uzoq muddatli fiskal barqarorlikni ta'minlash uchun bir qator strategik islohotlarni amalga oshirishi zarur.

Birinchidan, fiskal qoidalarining kuchaytirilishi ham Italiya, ham Yaponiya uchun muhimdir. Italiya mavjud qoidalardan samarali foydalanishni davom ettirishi, Yaponiya esa tavsiyaviy xarakterdagi fiskal qoidalarni majburiy mexanizmlarga aylantirishi lozim.

Ikkinchidan, byudjet xarajatlarini optimallashtirish, ayniqsa Yaponiya uchun, demografik bosim sharoitida fiskal yukni kamaytirishning muhim omilidir.

Uchinchidan, soliq tizimini isloh qilish Yaponiyada iste'mol solig'ini bosqichma-bosqich oshirish, Italiyada esa soliq bazasini kengaytirish hisobiga barqaror daromad oqimini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, qarz boshqaruvining diversifikatsiyasi qarz muddatlarini optimallashtirish, qayta moliyalash xavfini kamaytirish va foiz stavkalaridagi o'zgarishlarga chidamlilikni oshirish zarur.

Ikkala mamlakat uzoq muddatda fiskal shaffoflikni kuchaytirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, demografik siyosatni qayta ko'rib chiqish va fiskal-monetar siyosat uyg'unligini ta'minlash orqali davlat qarzining barqarorligini mustahkamlashi mumkin. Mazkur tavsiyalar nafaqat Italiya va Yaponiya, balki yuqori qarzga ega boshqa davlatlar uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

16 Muallif tomonidan adabiyotlarni o'rganish orqali mustaqil tuzildi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zhang S., Lin Z. The General Equilibrium Effects of Fiscal Policy with Government Debt Maturity. // Journal of Risk and Financial Management. – 2025. – Vol. 18, No. 7. – P. 396. DOI: <https://doi.org/10.3390/jrfm18070396>
2. Doi T., Ihori T., Mitsui K. Sustainability, Debt Management, and Public Debt Policy in Japan. – NBER Working Paper No. 12357. – 2006. – URL: <https://www.nber.org/papers/w12357>
3. Price R. The Political Economy of Fiscal Consolidation. – OECD Economics Department Working Papers, No. 776. – 2010. – URL: <https://doi.org/10.1787/5kmddq798lls-en>
4. Congregado E., Díaz-Roldán C., Esteve V. Deficit sustainability and fiscal theory of price level: the case of Italy, 1861–2020. // Empirica. – 2023. – DOI: <https://doi.org/10.1007/s10663-023-09577-w>
5. Magazzino C., Mutascu M. A Wavelet Analysis of Italian Fiscal Sustainability. // Economic Structures. – 2019. – Vol. 8, Article 19. – DOI: <https://doi.org/10.1186/s40008-019-0151-5>
6. Schilirò D. COVID-19 Crisis and the Public Debt Issue: The Case of Italy. – MPRA Paper No. 103997. – 2020. – URL: <https://mpra.ub.uni-muenchen.de/103997>
7. Tanaka H. An Analysis of Fiscal Governance: Why Japan's Fiscal Consolidation Fails? // Journal of International Economic Studies. – 2022. – Vol. 36. – Pp. 5–23. – DOI: <https://doi.org/10.15002/00025445>
8. Kafka K. I. Under the Veil of Uncertainty: Assessing the Greek Economy's Resilience and Vulnerability in the Face of Different Uncertainty Types. // Journal of the Knowledge Economy. – 2024. – Vol. 15. – Pp. 9288–9321. – DOI: <https://doi.org/10.1007/s13132-023-01459-7>
9. Gherghina R., Grecu R. A., Constantinescu C. M., Duca I., Postole M. A., Ciobănașu M. Effectiveness of Fiscal Policy Measures in Different Public Debt Regimes. // Journal of Business Economics and Management. – 2024. – Vol. 25, Issue 4. – Pp. 628–646. – DOI: <https://doi.org/10.3846/jbem.2024.21996>
10. Doi T., Hoshi T., Okimoto T. Japanese Government Debt and Sustainability of Fiscal Policy. // Journal of the Japanese and International Economies. – 2011. – Vol. 25, Issue 4. – Pp. 414–433. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jjie.2011.09.006>
11. <https://tradingeconomics.com/italy/government-debt-to-gdp>
12. <https://tradingeconomics.com/japan/government-debt-to-gdp>
13. <https://www.oecd.org/en/publications.html>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>